

**DITAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI VA ULARNI TA'LIM
JARAYONIDA QO'LLASH**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Aniq va Tabiiy fanlar fakultetiII bosqich
203-guruh talabalari*

O'ktamboyeva Malohat Nodirbek qizi

Janibekova Yulduzxon Mirsaid qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Katta o'qituvchi Turdiyeva Shoxidaxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada didaktikaning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning ob'ekti, predmeti va vazifalari, asosiy qonuniyat va kategoriyalari, ta'lim (o'qitish va o'qish) jarayonida yaxlit tizim sifatida alohida soha ekanligi hamda ta'lim jarayonlarining o'ziga xos tasnifi haqida asosiy tushunchalar yoritilib o'tildi.

Kalit so'zlar: Didaktika, o'qitish nazariyasi, umumiy didaktika, odam fiziologiyasi, ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, didaktik tamoyillar, bilim, ko'nikma va malakalar, o'rganish, o'rgatish, o'qish va o'qitish, tashkil etish, didaktik qobiliyat.

Kirish

Didaktika pedagogika va ma'rifiy nazariyaning nisbatan mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlari, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirilishi hamda e'tiqodlar shakllanishining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi, ma'rifat (ta'lim-tarbiya) mazmunining hajmi va tuzilmasini belgilaydi. "Didaktika" so'zi yunoncha "o'qitish", "o'rgatish" ma'nosini anglatadi. Yaqin va O'rta Sharqda Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Bruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos slogan bo'lsalar, Amos Komenskiy, shvesariyalik pedagog I.G.Pestalossi, nemis pedagogi A.Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga kata hissa qo'shdilar.



Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushinish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Al-Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmatqildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularning amaliy va nazariy metodlariga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillilik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan.

Didaktika - ta'lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir. Bu termin nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) tomonidan uning "Didaktika yoki ta'lim san'ati» deb nomlangan ma'ruzasida (1613) fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida qo'llanilgan. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgann 1657-yilda u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi.

I.F.Gerbart (1772-1841) didaktikaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda ta'lim va tarbiya, o'qitish va o'qish jarayonlarini birlashtirgan holda "tarbiyalovchi ta'lim" deb tushungan.

D.Dyui (1859-1952) ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'quvchining faolligiga, shaxsiy tajriba va aqliy faoliyat qobiliyatini shakllantirish asosidagi amaliy faoliyat tamoyillariga qaratgan.



Didaktikaning obyekti – o‘simlik kelayotgan avlodga ijtinoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta‘lim berishdir. Didaktikaning predmeti sifatida o‘rgatish (o‘qituvchi faoliyati) va o‘rganish (o‘quvchilarning bilish faoliyati), ularning harakati aks etadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi, muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlarning aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1. falsafiy tushunchalar;
2. xususiy ilmiy, ya‘ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyati va hodisa", "qarama-qarshilik" kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo‘llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida "tizim", "tuzilma", "vazifa", "element" kabilar alohida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. ta‘lim – o‘quvchilarga nazariy bilim berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;
2. dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta‘lim jarayonining asosiy shakli;
3. bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
4. ta‘lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
5. O‘quv fani– ta‘lim muassasalarida o‘qitishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘qituvchi tomonidan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan matnlar.



6. 6) ta'lim mazmuni– davlat ta'lim standartlari asosida berilgan bilim, ko'nikma, malakalar hamda ta'lim sharoitida muayyan fanga bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada "idrok etish", "o'zlashtirish", "qobiliyat", "rivojlanish", "o'z-o'qish", "psixologiya" hamda "boshqarish", "qayta aloqa" (fikir-mulohaza) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi. Didaktikaning tushunchalar-terminologiya tizimi mustahkam, yumaloq va ko'p qirrali bo'lishi lozim.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayonlari, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijalari.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi, borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy va lunafsar majmuasi;

2) bilim olish– idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko'nikma – olingan bilimlarni amaliyotga, olingan bilimlarni bajarishga bo'lgan va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

4) malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

5) ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

6) ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llaniladigan, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmua;



7) ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, jismoniy hayoti va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektlar (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, video magnitafon, uskuna, kompyuter, radiola, kompyuter va boshqalar) va subyektlar (o'qituvchining nutqi, o'quvchining mutolaa, muayyan shaxsiy mutolaa va faoliyatiga oid mulohazalari va hokazolar) omillar;

9) ta'lim jarayoni– o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) ta'lim mazmuni– davlat ta'lim standartlari asosida berilgan bilimlar hamda ma'lum sharoitda muayyan fanga bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi)– ta'limning aniq yo'naltirilgan belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)– ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta'limni boshqarish– ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) ta'lim tizimi– yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmua.

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash



maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladigan jarayonlardir. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika – muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlarini namoyon bo'ladi.

Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olishda didaktikaga yordam beradi.



Siyosatshunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

Xulosa

Umuman olganda, didaktika – ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi nazariy-amaliy fan bo'lib, u pedagogik jarayonning markazida turadi. O'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi, darsni rejalash ko'nikmasi, o'quvchilar bilan ishlash madaniyati aynan didaktik bilimlarga tayanadi. Shuning uchun har bir pedagog didaktika fanining asoslarini chuqur o'rganishi, uni amaliyotda qo'llay olishi, yangi metodlar bilan ishlashni o'zlashtirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, didaktika — ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishni o'rgatuvchi muhim fan bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning nazariy poydevori hisoblanadi. U o'quvchi shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, o'qituvchining kasbiy faoliyatini yo'naltiruvchi, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy metodologik tizimdir. Didaktika nafaqat ta'lim jarayonining tuzilishini, balki uning mazmuni, metodlari va natijalarini ham kompleks ko'rib chiqadi. Bugungi kunda ta'limdagi islohotlar, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuvlar didaktika fanining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu boisdan didaktika har bir o'qituvchining kasbiy poydevorini mustahkamlaydigan, ta'limning kelgusini belgilab beradigan eng muhim pedagogik nazariya sifatida qadrlanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S.Salayeva. Umumiy pedagogika. Toshkent-2021 yil
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: “Sano-Standart” nashriyoti 2017-yil.
3. Sh.A.Abdullayeva. Pedagogika. Toshkent: Fan 2011 yil.
4. N.X.Avliyoqulova. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent 2001 yil.
5. A.Erkaev. Ma’naaviyat- millat nishoni. Toshkent: Manaviyat- 1999 yil.